

TA’LIMDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Abdisamiyeva Dilnoza Isroiljon qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Boshlang’ich ta’lim fakulteti 1-kurs talabasi

O’zbekistonda dunyodagi barcha rivojlangan mamlakatlarda bo‘lgani kabi postindustrial informatsion jamiyatning shakllanishi davom etmoqda, uning o‘ziga xos belgisi ijtimoiy mehnat taqsimotida og‘irlik markazining moddiy ishlab chiqarish sohasidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ni qo‘llash asosida axborotni olish, qayta ishlash, yetkazish, saqlash, taqdim etish va foydalanish sohasiga o‘tishidan iborat.

Raqamli texnologiyalar yurtimizda ta’lim tizimiga ham faol joriy etilmoqda. Bu borada O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 29-apreldagi “O’zbekiston respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmonida “PISA” (The Programme for International Student Assessment) o‘quvchilarni baholash xalqaro dasturi reytingida O’zbekistonning 2021-yilda birinchi 70 talikka, 2025 yilda 60 talikka va 2030-yilga kelib esa, birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlar qatoriga kiritish ko‘zda tutilgan. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori bilan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi qoshida “Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi” tashkil etildi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabedagi PF 6079 sonli “Raqamli O’zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida raqamli dunyoda raqamlashtirish, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish, raqamli iqtisodiyot sohasida yangi loyihalarni ko‘rib chiqish va raqamli ta’limni rivojlantirish dasturlari amalga oshirilmoqda.

Ta’limni axborotlashtirish sharoitida o‘qitishning ta’lim oluvchilarining yagona taqsimlangan axborot-ta’lim muhitida ishlashini tashkil etish va ta’lim olish sifatini oshirishgamo‘ljallangan yangi o‘quv vositalarini yaratish va ulardan foydalanish dolzarb ahamiyatga ega.

Bunday o‘quv vositalariga raqamli ta’lim resurslari (RTR), ya’ni raqamli shaklda taqdim etilgan, zamonaviy ta’limning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga yo‘nalatirilgan grafik, matniy, nutqiylar, musiqiy, video, foto va boshqa ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan axborot manbalarini kiritish mumkin.

Ko‘p vazifali raqamli ta’lim resurslari katta hajmdagi axborotni joylashtirish; kerakli axborotni tez izlab topish; o‘quvchilar bilimini obyektiv va sifatli tekshirish; ko‘plab murakkab hodisa va jarayonlarni yaqqol, ko‘rgazmali tarzda tasvirlash; turli grafik bezaklardan foydalanish; turli shakl – vizual, audial va boshqa tarzda taqdim etilgan axborotni bir vaqtida qabul qilish imkoniyatini beradi. Shu munosabat bilan ta’limni

axborotlashtirish muammolarini to‘laqonli hal qilish bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashni takomillashtirish, ularga zamonaviy raqamli ta’lim resurslari bilan ishslash usullarini o‘rgatish, ularning o‘quv jarayonini raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish asosidagi muayyan tipdagi dars shaklida loyihalash va o‘quvchilarning sinfdan tashqari ishlarini tashkil etish metodikasini o‘zlashtirishini taqozo qiladi. Shuning uchun umumta’lim tizimi o‘qituvchisi, shu jumladan maktabgacha va boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ham zamonaviy axborot jamiyatidagi kasbiy faoliyatni amalga oshirishga, ta’lim sohasida informatsion va kommunikatsiya texnologiyalari vositalariimkoniyatlarini kompleks ravishda amalga oshirilmog‘i kerak.

Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasi demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lidan ketayotgan bir paytda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashdan iborattdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. B. X. Xodjayev «Umumiyy pedagogika nazariyasi va amaliyoti». «Sanostandart» nashriyoti. Toshkent – 2017.
2. To‘raqulov X. A. «Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari» Fan. Toshkent, 2006.